

3-dars. Takrorlash. Amallar tartibi



1. **Qulay** usul bilan hisoblang.

O $2 + 2 + 2 + 2 + 2$

I $4 + 4 + 4$

U $3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3$

Q $6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6$

L $5 + 5 + 5 + 5$

N $9 + 9 + 9 + 9 + 9$

Olingan javoblar bo'yicha hayvon nomini aniqlang. U qayerda yashaydi?

42 21 20 10 45



2. **Amallar tartibini** ko'rsating. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$6 \cdot 8 + 21 : 7$

$520 - 6 \cdot 9 + 219$

$(65 - 33) : 8 \cdot 7$

$397 + 45 : 5 - 164$



3. Qafasda saqoqushlar, 12 ta oqqush va chag'alaylar bor. Chag'alaylar oqqushlarga nisbatan 2 marta kam. Agar qafasda jami 35 ta qush bo'lsa, nechta saqoqush bor?



4. Dastlab tenglamalarning **o'ng qismini** hisoblang, keyin ularni yeching.

$x + 137 = 903 - 7 \cdot 5$

$400 - y = 6 \cdot 9 + 167$



5. Taqqoslang.

$173 \cdot 0$ ☐ $0 \cdot 273$




$256 : 1$ ☐ $256 \cdot 1$

$638 : 638$ ☐ $645 : 645$

$0 : 295$ ☐ $0 \cdot 295$



6. Har bir sxemaga **ifoda** tuzing. Ularning qiymatini toping.





7. **Ifodalarni** yozing. Ularning qiymatini hisoblang.

a) Har bir uyada b ta qushcha bor. 7 ta uyada nechta qushcha bor? ($b = 5$)

b) 6 ta tuya uchun m chelak suv keltirildi. Har bir tuyaga qanchadan suv to'g'ri keladi? ($m = 18$)

d) O'tgan asrda qo'riqxonada d ta oq tirnoqli ayiq yashagan edi. Hozirgi vaqtda ularning soni 2 marta kamaydi. Ayiqlar soni qanchaga kamaygan? ($d = 20$)

e) Parvarishxonada t ta katta yoshli jayron va ulardan 3 marta ko'p jayron bolalari bor. Parvarishxonada jami nechta jayron bor? ($t = 7$)



8. Azim noyob hayvonlar haqida kitob o'qishni boshladi. Birinchi kun u 142 bet o'qidi, **bu** ikkinchi kundagidan 15 bet ko'p. Agar kitob jami 356 bet bo'lsa, u yana necha bet o'qishi kerak?



9. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang.

a) $8 \cdot 9 + (14 + 34) : 6 - 19$

b) $152 - (11 + 63 : 9 \cdot 4)$



10. Kiyik 2 bog'lam pichanni yeb tugatgunicha, sayg'oq 7 bog'lam pichan yeydi. Sayg'oq 3 bog'lam pichanni yeb tugatgunicha, tuya 5 bog'lam pichan yeydi. Ma'lum muddat ichida kiyik bilan sayg'oq 27 bog'lam pichanni yeb tugatdi. Shu vaqt ichida tuya necha bog'lam pichanni yeb tugatgan?



11. Ifodalarning qiymatini amallarning **to'g'ri tartibiga** rioya qilgan holda hisoblang.

$$6 \cdot 7 - 13$$

$$(56 - 44) : 3$$

$$45 : 5 + 64$$

$$81 : (17 - 8)$$

$$27 : 9 + 18 : 6$$

$$(25 + 24) : 7$$

12. Hayvonot bog'ida bitta ayiqqa kuniga 6 kg sabzavot va 3 kg meva kerak bo'ladi. To'rtta shunday ayiqqa jami qancha oziqa kerak bo'ladi?

